




O'zbekistondagi BMT Vakilligi



**BRM-**  
BU DUNYONI  
O'ZGARTIRISHGA  
YO'NALTIRILGAN  
17 TA MAQSADDIR





**1** O'TA QASHSHOQLIKKA  
BARHAM BERISH



**1-maqсад.** O'ta qashshoqlikka  
barham berish

8-bet

**2** OCHLIKKA  
BARHAM BERISH



**2-maqсад.** Ochlikka barham  
berish

10-bet

**3** SOG'LIK VA  
FAROVONLIK



**3-maqсад.** Sog'lik va farovonlik

12-bet

**4** SIFATLI  
TA'LIM



**4-maqсад.** Sifatli ta'lim

14-bet

**5** GENDER  
TENGLIGI



**5-maqсад.** Gender tengligi

**16-bet**

**6** TOZA SUV VA  
SANTARIYA



**6-maqсад.** Toza suv va sanitariya

**18-bet**

**7** ARZON VA  
TOZA ENERGIYA



**7-maqсад.** Arzon va toza energiya

**20-bet**

**8** MUNOSIB ISH  
O'RINLARI VA  
IQTISODIY O'SISH



**8-maqсад.** Munosib ish o'rinlari va  
iqtisodiy o'sish

**22-bet**

**9** SANOATLASHTIRISH,  
INNOVATSIYA VA  
INFRATUZILMA



**9-maqсад.** Sanoatlashtirish,  
innovatsiya va infratuzilma

24-bet

**10** TENGSIZLIKNI  
KAMAYTIRISH



**10- maqsad.** Tengsizlikni  
kamaytirish

26-bet

**11** BARQAROR SHAHARLAR  
VA AHOLI YASHASH  
JOYLARI



**11-maqsad.** Barqaror shaharlar va  
aholi yashash joylari

28-bet

**12** MAS'ULIYATLI  
ISTE'MOL VA  
ISHLAB CHIQRISH



**12-maqsad.** Mas'uliyatli iste'mol  
va ishlab chiqarish

30-bet

**13** IQLIM O'ZGARISHIGA  
QARSHI KURASHISH



**13-maqсад.** Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish

**32-bet**

**14** DENGIZ  
EKOTIZMLARINI  
ASRASH



**14-maqсад.** Dengiz ekotizimlarini asrash

**34-bet**

**15** QURUQLIKDAGI  
EKOTIZMLARNI  
ASRASH



**15-maqсад.** Quruqlikdagi ekotizimlarni asrash

**36-bet**

**16** TINCHLIK, ADOLAT  
VA SAMARALI  
BOSHQARUV



**16- maqсад.** Tinchlik, adolat va samarali boshqaruv

**38-bet**

**17** BARQAROR  
RIVOJLANISH  
YO'LIDA HAMKORLIK



**17- maqсад.** Barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik

**40-bet**

# 1 O'TA QASHSHOQLIKKA BARHAM BERISH



## MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*2030 yilgacha qashshokning barcha shakllariga barham berish.*

*Qoraqalpog'istonlik asalarichi Jubayev Bahtiyor, nabirasi Jubayev Abdusalom (1,5 yosh) bilan Nukus tumanidagi asalarichilik xo'jaligidan olingan mahsulotdan mamnun.*

*Fotosurat: BMTTD O'zbekiston*





## NIMA UCHUN BU MUHIM?

# 836

million kishi hanuzgacha o'ta qashshoqlikda yashab kelmoqda.



Rivojlanayotgan mamlakatlardagi deyarli har bir beshinchi odamkuniga 1,25 dollardan kam mablag' bilan hayot kechiradi.



5 yoshgacha davrdagi har bir to'rtinchi bolaning bo'yi me'yordan past.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

Agar siz davlat siyosatini belgilashda ishtirok etsangiz yoki shunga mas'ul shaxs bo'lsangiz: hukumatlar nochorlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj (marginal) kishilarning mahsuldor bandligi hamda ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muvofiq shart-sharoit yaratishda yordam berishlari mumkin. Ular aholining kambag'al qatlamlari manfaatlarini ko'zlaydigan iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi hamda qashshoqlik darajasini pasaytirishga ko'maklashuvchi strategiyalar va moliyaviy dasturlar ishlab chiqishlari mumkin.

Agar siz xususiy sektorda ishlasangiz: modomiki xususiy sektor iqtisodiy o'sishni harakatga keltiruvchi kuch ekan, ushbu o'sish umumqamrovli bo'lishi va qashshoqlikni tugatishga hissa qo'shish yo qo'shmasligi ko'p jihatdan aynan xususiy sektorga bog'liq. Xususiy sektor o'z kuchini iqtisodiyotning kam ta'minlangan kishilarning ko'proq qismi jalb qilingan segmentlariga, aynan – mikro va kichik korxonalariga, shuningdek, noformal sektorda faoliyat yuritayotgan korxonalariga yo'naltirib, aholining kambag'al qatlamlarining iqtisodiy imkoniyatlari kengayishiga ko'maklashishi mumkin.

Agar siz ilmiy yoki akademik hamjamiyatning a'zosi bo'lsangiz: ilmiy va akademik doiralarda vakillari aholining qashshoqlik ta'siri bo'yicha tushunchalarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydilar. Fan qashshoqlik

darajasini qisqartirib, barqaror rivojlanishga erishish imkonini beradigan yangi, barqarorlik prinsiplariga asoslangan yondashuv, yechim va texnologiyalar uchun poydevor yaratadi.

800 milliondan ortiq kishi avvalgidek o'ta qashshoqlikda yashamoqda va eng zarur hayotiy ehtiyojlarni, masalan, sog'likni saqlash, ta'lim, suv zaxiralaridan foydalanish va sanitariyaga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

800 million kishi bu – juda ko'p.

Ha, yana bir ma'lumot. Janubiy Osiyo va Sahroi Kabirdan janubgachabo'lgan Afrika mamlakatlari aholisining aksar qismi bir kunda 1,90 AQSh dollaridan kam mablag' oladi. Bu kishilar dunyo bo'yicha o'ta qashshoqlikda kun kechirayotgan jami odamlarning 70 foizini tashkil etadi.

Daromadi o'rtachadan kam bo'lgan mamlakatlar, jumladan, Hindiston, Indoneziya, Xitoy, Nigeriya aholisi soni nochorlik chegarasi ortida yashayotgan barcha kishilarning taxminan yarmiga teng.

Biroq ushbu holat rivojlangan mamlakatlarga ham aloqador. Hozirgi kunda jahonning eng badavlat mamlakatlarida 30 milliondan ziyod bola nochorlik chegarasi ortida yashamoqda.

## 2 OCHLIKKA BARHAM BERISH



### MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Ochlikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va oziqlanishni yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish.*

*Tarvuz hosilini yig'ayotgan bola. ►  
Qoraqalpog'iston, Nukus tumani.*

*Fotosurat: BMTTD O'zbekiston*



## NIMA UCHUN BU MUHIM?



Dunyoda 795 millionga yaqin kishi (sayyoramiz aholisining har bir to'qqizinchi vakili) to'yib ovqat yemaydi.

45%

5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasidagi o'lim holatining deyarli yarmi (45%) to'yib ovqat yemaslik natijasida yuz beradi.

3,1 MLN

Har yili shu sababdan 3,1 million bola hayotdan ko'z yumadi.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

Uyda, ishda, o'z hamjamiyatingizda – hamma joyda mahalliy fermerlar yoki bozorlarni qo'llab-quvvatlab, barqaror usullarda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarini ko'proq xarid qilib, shuningdek, barcha odamlarni tegishli ovqatlanish tartibi bilan ta'minlashni qo'llab va oziq-ovqatni isrof qilishga qarshi kurashda ishtirok etib, siz o'z hayotingizni o'zgartira olasiz.

Siz batafsil axborot olish, jumladan, yana nima qilishingiz mumkinligi haqida bilish uchun «Zero Hunger» ([www.zerohungerchallenge.org](http://www.zerohungerchallenge.org)) dasturida qatnashish orqali Ochlikni tugatish bo'yicha Global harakatga qo'shilishingiz mumkin.

Ochlikning so'nggi bosqichi va to'yib ovqat yemaslik barqaror rivojlanish yo'lida to'siq bo'lib qolmoqda hamda aylanib o'tish mushkul bo'lgan qopqondir. Ochlik va to'yib ovqat yemaslik odamlarning ishchanlik qobiliyati pasayishiga sabab bo'ladi va ularning kasalliklarga nisbatan zaifligini oshiradi, buning oqibatida kishilar aksar hollarda ko'proq pul topish va yashash sharoitini yaxshilash qobiliyatini yo'qotadi. Butun dunyoda 800 millionga yaqin kishi ochlikdan aziyat chekmoqda, ularning ko'pchiligi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashab kelmoqda.

### 3 SOG'LIK VA FAROVONLIK




#### MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Sog'lom turmush tarzini ta'minlash  
va barcha yoshdagi kishilarning  
farovonligiga ko'maklashish.*

*Qizcha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan  
emlash jarayonida.* ►

*Fotosurat: YuNISEF O'zbekiston*



## NIMA UCHUN BU MUHIM?



### **Bolalar salomatligi**

Tadqiqotlarga ko'ra, besh yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'lim hajmi 12,7 milliondan 6,3 milliongacha kamaygan: 2013 yili har kuni 1990 yildagiga nisbatan 17000 nafar kam bola nobud bo'lgan.

Eng nochor oilalarda dunyoga kelgan bolalarning besh yoshgacha omon qolmasligi ehtimoli badavlat oilalarda voyaga yetayotgan bolalarga qaraganda ikki barobar kuchli.



### **Onalik muhofazasi**

1990 yildan beri onalar orasida o'lim holatlari deyarli yarmiga kamaydi.



### **OIV/OITS, bezgak va boshqa kasalliklar**

2013 yili, kuzatuvlarga ko'ra, OIV bilan yangi zararlanish holatlari 2,1 millionni tashkil etdi, ushbu raqam 2001 yildagiga nisbatan 38 foizga kam.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

Siz puxta o'ylab qaror qabul qilish va farzandlaringizni vaqtida emlash orqali o'z sog'ligingiz hamda yaqinlaringizning salomatligini qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilish chora-tadbirlaridan boshlashingiz mumkin.

Har bir kishining, ayniqsa, aholining ayollar va bolalar kabi zaif guruhlarining salomatligi yaxshilanishiga ko'maklashish uchun maktab, klublar, guruh va tashkilotlar qoshida tadbirlar uyushtiring.

Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va har qanday yosh davrida barchaning farovonligiga ko'maklashish gullab-yashnayotgan jamiyat qurishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, so'nggi yillarda aholi salomatligi hamda farovonligini yaxshilash borasida erishilgan sezilarli muvaffaqiyatlarga qaramay, sog'likni saqlash tizimi xizmatlaridan foydalanishda tengsizlik hamon saqlanib qolmoqda.

Har yili 6 milliondan ziyod bola besh yoshga to'lmay vafot etadi. Rivojlanayotgan hududlardagi barcha ayollarning yarmigina ularga zarur bo'lgan tibbiy xizmatdan foydalana oladi.

Qo'rquv hamda diskriminatsiya sog'lom va mahsuldor hayot kechirish uchun zarur xizmatlarni olish imkoniyatini chegaralab qo'ygan joyda OIV/OITS kabi kasalliklar epidemiyasi keng tarqaladi.

Salomatlik va farovonlikka erishish inson huquqlaridan biridir, shuning uchun Barqaror rivojlanish sohasi Kun tartibi faqat badavlat kishilarga emas, barchaga sog'likni saqlash va tibbiy xizmat sohasining eng yuqori standartlaridan foydalanishni ta'minlash uchun yangi imkoniyatlarni kashf qilmoqda.

# 4 SIFATLI TALIM



## MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Barchani qamrab oluvchi, teng huquqli hamda sifatli ta'limni ta'minlash va barcha uchun uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish.*

*Toshkent shahridagi №50-maktabning 2-sinf o'quvchilari tasviriy san'at darsida o'z ijod mahsullarini ustozlariga ko'rsatmoqdalar.*

*Fotosurat muallifi: Husniddin Ato*



## NIMA UCHUN BU MUHIM?

# 91%

Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich maktab ta'limiga qamrab olingan bolalar soni 91 foizga yetdi.

# 57<sub>MLN</sub>

Biroq butun dunyoda o'qishga qatnamayotgan maktab yoshidagi bolalarning soni hanuz 57 millionni tashkil qilmoqda. Maktabga bormayotgan bolalarning yarmidan ko'pi Sahroi Kabirdan janubda joylashgan Afrika mamlakatlarida yashaydi.

# 50%

Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, o'qishga qatnamayotgan kichik maktab yoshidagi bolalarning 50 foizi mojarolar tufayli jabr ko'rgan hududlarda hayot kechirmoqda.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

Agar siz davlat siyosatini belgilashda ishtirok etsangiz yoki shunga mas'ul shaxs bo'lsangiz, ta'limni siyosatda ham, amalda ham ustuvor vazifalardan biriga aylantiring.

Agar siz xususiy sektorda faoliyat ko'rsatsangiz, sarmoyangizni ta'limning moddiy va metodik bazasini ishlab chiqish hamda boyitishga kiriting.

### ***Nima uchun ta'lim muhim?***

Ta'lim barqaror rivojlanish sohasidagi ko'pgina boshqa maqsadlarga (BRM) erishish imkonini beruvchi

muhim bo'g'indir. Agar insonlarda sifatli ta'lim olish imkoniyati mavjud bo'lsa, ular nochorlik changalidan qutila oladilar. Shuning uchun ta'lim tengsizlikni qisqartirish va gender tengligiga erishishga ko'maklashadi.

Shuningdek, u barcha odamlar uchun sog'lom va mo'tadil hayot kechirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta'lim odamlar o'rtasidagi munosabatlarda bag'rikenglikni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi hamda tinch va xotirjam jamiyatlarning shakllanishiga ko'maklashadi.

## 5 GENDER TENGLIGI



### MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Gender tengligini ta'minlash, barcha ayol va qiz bolalarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish.*

*Ishga joylashayotgan qiz suhbatdan ▶  
muvaffaqiyatli o'tdi.*

*Fotosurat muallifi: Jahongir Azimov*





## NIMA UCHUN BU MUHIM?



Rivojlanayotgan mamlakatlarning deyarli uchdan ikki qismi boshlang'ich ta'limda gender tengligiga erishdi.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

**Qiz bolalar maktabda o'qishni davom ettirishlari** hamda o'z sinfdosh dugonalariga huquq va imkoniyatlarini kengaytirishda yordam berishlari mumkin.

**Ayollar erkaklar bilan teng imkoniyatlarni ta'minlashda** kimningdir irodasiga qarshi ko'rinmas to'siq bo'lishi mumkin asossiz va ongsiz bid'at, noto'g'ri fikrlar va tasavvurlar bilan kurasha oladilar.

**Erkaklar va o'g'il bolalar** gender tengligiga erishish ustida ayollar va qizlar bilan birgalikda ishlashlari hamda hurmat va ehtiromga asoslangan ma'naviy sog'lom munosabatlar qurishlari mumkin.

Ayollar va qizlar sayyoramiz aholisining yarmini tashkil etadi, demak, insoniyat salohiyatining yarmi ham ayollarga to'g'ri keladi. Biroq hozirgi kunda ijtimoiy taraqqiyotda turg'unlik keltirib chiqarayotgan gender tengsizligi deyarli hamma joyda saqlanib qolmoqda.

2014 yil ma'lumotlariga ko'ra, 143 mamlakat o'z konstitutsiyalarida ayollar va erkaklarning teng huquqliligini kafolatlagan, ammo 52 mamlakat hali buni hayotga tadbiiq etishi zarur.

### **Agar gender tengligi ta'minlanmasa, nima sodir bo'ladi?**

Qiz bolalar duchor bo'ladigan tengsizlikning turli shakllari ular tug'ilishi bilan paydo bo'lishi hamda butun umr davom etishi mumkin. Ayrim mamlakatlarda qizlarga sog'likni saqlash yoki to'yimli ovqatdan foydalanish huquqi berilmaydi, buning oqibati o'lim holatlarining ko'payishiga olib keladi.



Bugungi kunda **46 mamlakatda** davlat parlamentining juda bo'lmaganda bitta palatasida 30 foizdan ko'proq o'rinni ayollar egallagan.

Qiz bolalar ulg'ayishi bilan tengsizlik kuchayadi. Qizlar o'g'il bolalarga nisbatan ko'proq bolalar nikohining qurboniga aylanadilar. Dunyo bo'yicha har yili taxminan 15 million, ya'ni har kuni 37 ming nafar 18 ga to'lmagan qiz turmushga beriladi.

Erta nikoh qizlarning ta'limiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning uchdan bir qismida boshlang'ich ta'limda gender tengligiga hanzu erishilmagan.

Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika mamlakatlari, Okeaniya hamda G'arbiy Osiyoda qizlar boshlang'ich va o'rta maktabga o'qishga kirishda hali ham to'siqlarga duch kelmoqdalar.

### **Gender tengsizligi ayollarning hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?**

Ta'limning yetishmasligi kasbiy tayyorgarlikka erishishga yo'l bermaydi hamda mehnat bozorida imkoniyatlarning cheklanishiga olib keladi.

Ayollar hamda qizlarning huquq va imkoniyatlari kengayishi iqtisodiy o'sishni tezlashtirish hamda ijtimoiy yuksalishda muhim rol o'ynaydi. Agar ayollarning ish kuchi to'liq jalb qilinsa, ko'pchilik mamlakatlarda yuksalish sur'ati oshar edi. Bunda yuksalish aksar hollarda 10 foizdan ko'proq oshishi mumkin.

## 6 TOZA SUV VA SANITARIYA



### MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Barcha uchun xavfsiz suv zaxiralari va sanitariya vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.*

*Aholini suv bilan ta'minlash loyahasini ishga tushirish jarayonidan. Qoraqalpog'iston, Nukus tumani.*

*Fotosurat: BMTTD O'zbekiston*



## NIMA UCHUN BU MUHIM?



2,6

MILLIARD KISHI


1990 yildan beri 2,6 milliard kishi toza ichimlik suvi manbalaridan bahramand bo'lmoqda, biroq 663 million kishi hanz bunday imkoniyatga ega emas.



2,4

MILLIARD KISHI

2,4 milliard kishi hojatxona yoki moslashtirilgan qazilma chuqur kabi asosiy sanitariya xizmatlaridan foydalana olmaydi.



1 000

NAFAR BOLA

Har kuni deyarli 1000 nafar bola suv ta'minoti hamda sanitariya sohasidagi muammolar keltirib chiqaradigan, oldini olish va tuzatish mumkin bo'lgan diareya (ich buzilishi) kasalliklari tufayli hayotdan ko'z yummoqda

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

Fuqarolik jamiyati tashkilotlari hukumatlarning hisobdorligini ta'minlash bo'yicha ish olib borishi, suv ta'minotini tadqiq etish hamda rivojlantirishga sarmoya kiritishi, shuningdek, ayollar, yoshlar va mahalliy aholi hamjamiyatlarining suv zaxiralarini boshqarishda ishtirokini rag'batlantirishi lozim.

**Shu bilan birga,** siz gigiyena bilan bog'liq muammolarni yechish choralarini rag'batlantirish va axborot ulashishga yo'naltirilgan «Suv zaxiralari butunjahon kuni», «Hojatxona butunjahon kuni» kabi tadbirlarda qatnashishingiz mumkin.

Suv zaxiralari, sanitariya va gigiyena vositalaridan foydalanish inson huquqlari sirasiga kiradi, ammo milliardlab kishilar kundalik turmushda hatto eng asosiy xizmatlardan foydalanishda qiyinchiliklarga

duch kelmoqdalar.

Butun dunyoda **1,8 milliard kishi** najas bakteriyalari bilan zararlangan ichimlik suvi manbalaridan foydalanadi. **2,4 milliardga yaqin kishi** hojatxona yoki moslashtirilgan qazilma chuqur kabi asosiy sanitariya xizmatlaridan mosuvo qilingan. Suv yetishmasligi tufayli Yer shari aholisining 40 foizidan ko'prog'i aziyat chekadi va bu raqam yanada oshishi kutilmoqda.

Inson faoliyati natijasida hosil bo'lgan suyuq chiqindilarning 80 foizdan ko'pi hech qanday ishlov berilmasdan daryo yoki dengiz suvlariga chiqarilmoqda, buning oqibati suv havzalarining ifloslanishiga olib kelmoqda.

## 7 ARZON VA TOZA ENERGIYA



### MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Barcha uchun energiyaning arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy manbalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.*

*“Tik-ozek” qishloq fuqarolik yig'ini qoshidagi vrachlik punktiga o'rnatilgan Quyosh paneli. Qoraqalpog'iston, Mo'ynoq tumani.* ▶

*Fotosurat: BMTTD O'zbekiston*



## NIMA UCHUN BU MUHIM?



Dunyodagi har bir beshinchi kishi elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatiga ega emas.

# 3

## MILLIARDGA YAQIN KISHI

3 milliardga yaqin kishi o'tin yoki o'simlik qoldiqlari kabi an'anaviy biomassaga muhtoj, bular ovqat tayyorlash va uyni isitish uchun foydalaniladi.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

**Mamlakatlar** qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish, ko'proq energiya tejavchi amaliyotni qo'llash, shuningdek, toza energiyaga asoslangan texnologiya va infratuzilmalardan foydalanish orqali qimmat bo'lmagan, ishonchli va barqaror energetik tizimga o'tishni tezlashtirishlari mumkin.

**Korxonalar** gidroenergetika va bioenergetikadan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish maqsadida ekotizimlarni qo'llab-quvvatlashlari hamda muhofaza qilishlari, shuningdek, o'zlariga zarur bo'lgan energiyani 100 foiz qayta tiklanadigan manbalardan olishni ta'minlash majburiyatini o'z zimmlariga olishlari mumkin.

**Ish beruvchilar** telekommunikatsiyalarni faolroq qo'llash va avtomobil yoki havo transporti o'rniga transportning temiryo'l kabi energiyani kam sarflovchi turlaridan ko'proq foydalanishni rag'batlantirish orqali transportga bo'lgan ichki ehtiyojni kamaytirishlari mumkin.

**Investorlar** xilma-xil ta'minotchilar tomonidan taqdim etiladigan yangi texnologiyalarni bozorga tez chiqarib, barqaror energiya yetkazib berish bo'yicha xizmatlarga kiritiladigan sarmoya hajmini ko'paytirishlari mumkin.

**Siz** elektr jihozlarini, jumladan kompyuterlarni elektr taqsimlagichlarga ulash va zarur bo'lmagan vaqtda ularni manbadan to'liq uzib qo'yishorqali elektr energiyasini tejashingiz mumkin. Shuningdek, atrof muhitga uglerod chiqarilishini kamaytirish uchun velosiped, jamoat transportidan foydalanish yoki piyoda yurish mumkin.

Bizning kundalik hayotimiz ishonchli va arzon energetik xizmatlarga, shuningdek, ularning uzilishsizlashi va teng rivojlanishiga bog'liq. To'g'ri tashkil etilgan energetik tizim tadbirkorlik, sog'likni saqlash va ta'limdan tortib qishloq xo'jaligi, infratuzilma, kommunikatsiya va yuqori texnologiyalargacha – barcha sektorlarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Aksincha, energiya ta'minoti va energiyani o'zgartirish tizimlaridan foydalanish imkoniyatining mavjud bo'lmashligi inson salohiyati va iqtisodning yuksalishiga to'siq bo'ladi.

***Men elektr energiyasidan bemalol foydalanaman. Bu maqsad men uchun nimasi bilan muhim?***

Bir necha o'n yillar davomida ko'mir, neft va gaz kabi qazilma yoqilg'i elektr energiyasining asosiy manbai bo'lib keldi. Biroq uglerodli yoqilg'i yonganda atmosferaga iqlim o'zgarishiga olib keladigan hamda odamlar farovonligi va atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan issiqxona gazlari chiqariladi. Zotan, oqibatda insoniyatning bir qismi emas, butun sayyoramiz aholisi jabr ko'rmoqda. Bundan tashqari, jahonda elektr energiyasini iste'mol qilish darajasi o'ta tez oshib bormoqda.

Demak, mo'tadil elektr ta'minoti mavjud bo'lmasa, mamlakatlar o'z iqtisodiyotini quvvatlantira olmaydi.

## 8 MUNOSIB ISH O'RINLARI VA IQTISODIY O'SISH



### MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Keng qamrovli va barqaror iqtisodiy o'sish hamda barcha uchun bandlik va munosib mehnat qilish imkoniyatlarini ta'minlashga ko'maklashish.*

*Yodgorliklar ishlab chiqaruvchi "Qoraqalpog' Sheberi Manzura" korxonasining chevar qizlari ish ustida. Qoraqalpog'iston, Mo'ynoq tumani.*

*Fotosurat: BMTTD O'zbekiston*



## NIMA UCHUN BU MUHIM?



Dunyoda ishsizlar soni **2007 yildagi 170 milliondan 2012 yilda 202 millionga yetdi**, bunda 75 million kishini yosh ayol va erkaklar tashkil qiladi.

**Deyarli 2,2 milliard kishi** kunlik daromadi 2 AQSh dollarini nazarda tutgan qashshoqlik chegarasi ortida yashab kelmoqda. Bunday qashshoqlikka faqat mo'tadil hamda yaxshi haq to'lanadigan ish bilan ta'minlash orqali barham berish mumkin.

# 470 MLN

2016 yildan 2030 yilgacha dunyo mehnat bozorining yangi ishtirokchilari uchun **470 million** ish o'ni yaratish lozim bo'ladi.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

**Yoshlar munosib ishga o'tish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun** eng yuqori sifatli ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka sarmoya kiritish zarur, zero sifatli ta'lim va kasbiy tayyorgarlik yoshlarga mehnat bozori talablariga mos ko'nikmalarni egallash, shartnoma turidan qat'i nazar, ijtimoiy himoya va asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritishga yordam beradi. Bundan tashqari, teng imkoniyatlar yaratiladiki, natijada yoshlar jinsi, daromadi darajasi yoki ijtimoiy-iqtisodiy maqomiga qaramasdan, o'zlariga muvofiq mahsuldor ish topa oladilar.

**Hukumatlar** yoshlar bandligi hamda ayollarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, barcha kishilarni munosib ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish orqali dinamik, barqaror, innovatsion va insonlar manfaatlarini ko'zlaydigan iqtisodiyot yaratish bo'yicha ish olib borishlari mumkin.

**Mahalliy hokimiyat va jamoalar jamiyatning** birdamligi va har bir kishining shaxsiy xavfsizligiga ko'maklashish, shuningdek innovatsiyalar va bandlikni rag'batlantirish uchun konsepsiyalarini yangilashlari va o'zshaharlari tuzilishini optimallashtirishlari mumkin.

Yangi ish o'rinlari yaratishdan tashqari, mehnat bilan band bo'lgan, lekin o'zlari va oilalarining qashshoqlik changalidan qutilishi uchun yetarli mablag' topmayotgan 780 million ayol va erkakning ish sharoitlarini yaxshilash zarur.

Shu bilan birga, ishga joylashishda ayollar va qizlar uchun erkaklar va o'g'il bolalar bilan teng imkoniyatlar yaratish lozim.

## 9 SANOATLASHTIRISH, INNOVATSIYA VA INFRATUZILMA



### MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Mustahkam infratuzilma yaratish,  
keng sanoatlashgan va innovatsiyalar  
bilan boyitilgan tizim joriy etilishiga  
ko'maklashish.*

Qozog'istonning Ostona shahrida  
bo'lib o'tgan "EXPO-2017" Xalqaro  
ko'rgazmasida O'zbekiston Respublikasi  
tomonidan namoyish qilingan muqobil  
energiyada harakatlanuvchi eko-  
avtomobillar namunasi. ▶

Fotosurat: "O'zavtosanoat" AJ





## NIMA UCHUN BU MUHIM?



# 2,6

MILLIARD

Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashayotgan 2,6 milliard kishi uzluksiz elektr ta'minotidan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.



# 2,5

MILLIARD

Butun dunyoda 2,5 milliard kishi asosiy sanitariya xizmatlariga ega emas.



TAXMINAN

# 800

MLN

Taxminan 800 million kishi ichimlik suvidan mosuvo, ularning aksariyati Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika mamlakatlari va Janubiy Osiyoda yashaydi.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

Kompaniya loyihalari va tashabbuslarini barqaror boshqarishni ta'minlaydigan standartlarni belgilash va me'yoriy hujjatlar qabul qilinishiga ko'maklashish.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror o'sishga ko'maklashish maqsadida NDT va davlat sektori bilan hamkorlik qilish.

Sanoat bizning hayotimiz va farovonligimizga qanday ta'sir ko'rsatayotgani haqida mushohada qilib, davlat siyosatini belgilaydigan kishilarni barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlarni ustuvor amalga oshirishga chorlash uchun ijtimoiy media vositalaridan foydalanish.

Iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va iqlim muhofazasi bo'yicha choralar ko'p jihatdan infratuzilma, sanoatni barqaror rivojlantirish va texnik taraqqiyotga sarmoya kiritilishiga bog'liq.

Global iqtisodiy manzaraning tezkor o'zgarishi va tengsizlikning ortib borishi tufayli bosqichma-bosqich o'sish sanoatlashtirishni qamrab olishish lozim, zero u, birinchidan, barcha odamlar uchun imkoniyatlarga yo'l ochadi, ikkinchidan, innovatsiyalar va mustahkam infratuzilmaga tayanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi yo'llar, axborot-kommunikatsiyaviy texnologiyalar, sanitariya, elektr energiyasi va suv ta'minoti kabi asosiy infratuzilmaga ega emas.

# 10 TENGSIKLIKNI KAMAYTIRISH



## MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?


*Mamlakatlarda va ichki tengsizlik darajasini qisqartirish*

*Xayriya konsertida ishtirok etayotgan imkoniyati cheklangan bolalarning portreti.* ▶

*Fotosurat muallifi: Jahongir Azimov*



## NIMA UCHUN BU MUHIM?



Rivojlanayotgan mamlakatlardagi uy xo'jaliklarining sezilarli qismi – bu raqam **aholining 75 foizini** tashkil qiladi – daromad 1990 yillardagiga nisbatan notekis taqsimlanadigan jamiyatlar takibiga kiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, kam ta'minlangan oilalar farzandlarining **besht yoshgacha** yashash ehtimoli ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lgan oilalarning farzandlariga nisbatan uch marta kam.

Butun dunyoda ijtimoiy himoya dasturlari ancha kengaytirildi, biroq shunga qaramay, **nogironlarning** tibbiy xizmatdan foydalanishda o'ta yuqori xarajatlarning yuzaga kelish ehtimoli o'rtachadan besht marta ko'p.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

**Mamlakat ichida** umumqamrovli ijtimoiy va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish lozim. Biz ayrim kishilarni kamsitadigan qonunlarni va siyosiy choralarni bekor qilish hamda kamsitish amaliyotini bartaraf etish orqali barcha uchun teng imkoniyatlar yaratishimiz hamda daromad taqsimotidagi tengsizlikni qisqartirishimiz mumkin.

**Mamlakatlar o'rtasida** biz global masalalar bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida rivojlanayotgan mamlakatlar vakillarining ko'proq qatnashishlarini ta'minlashimiz darkor, natijada qabul qilinadigan qarorlaryanada samarali, ishonchli va hisobdor bo'ladi.

Butun dunyoda mamlakat ichida ham, mamlakatlar o'rtasida ham kishilarning daromadi, jinsi, yoshi, nogironligi, irqi, sinfi, etnik kelib chiqishi, dini, imkoniyatlariga ko'ra tengsizlik hanuz saqlanib qolmoqda. Tengsizlik uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni xavf ostiga qo'yadi, qashshoqlik hajmi qisqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda insonlarni qoniqish va o'ziga hurmat hissidan ayiradi. Bu, o'z navbatida, jinoyatchilikni kuchaytirishi, kasalliklarni keltirib chiqarishi va atrof muhit holatining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Eng muhimi shuki, agar odamlar eng yaxshi hayot qurish imkoniyati, shart-sharoiti va umiddan judo bo'lgan bo'lsalar, biz barqaror rivojlanishga erisha olmaymiz va sayyoramizni barcha uchun yaxshiroq qila olmaymiz.

# 11 BARQAROR SHAHARLAR VA AHOLI YASHASH JOYLARI



## MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Shahar va aholi yashash joylarining ochiqligi, xavfsizligi, mustahkamligi va ekologik barqarorligini ta'minlash.*

*Toshkentda kun botishi.* ▶

*Fotosurat muallifi: Jahongir Azimov*



## NIMA UCHUN BU MUHIM?



**3,5** MILLIARD

Bugungi kunda insoniyatning yarmi, ya'ni 3,5 milliard kishi shaharlarda istiqomat qiladi.

DEYARLI

**60%**

2030 yilga kelib dunyo aholisining deyarli 60% shahar tumanlarida yashay boshlaydi.

**828** MLN

Xarobalarda hayot kechirayotgan odamlar soni ortib bormoqda, hozir xarobalarda 828 million kishi kun ko'rmoqda.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

Shahringizni barqaror boshqarishga ko'maklashing. O'z uyingiz, mahallangiz yoki tumaningiz konsepsiyasini ishlab chiqing va ushbu konsepsiyaga asosan harakat qiling. Ish o'rinlari yetarli? Tibbiyot maskanlari yaqin joylashganmi? Farzandlaringiz maktabga xavfsiz qatnay oladimi? Oilangiz bilan kechqurun yoki tunda ko'chada bemalol yura olasizmi? Jamoat transportining sizga eng yaqin bekati qancha masofada joylashgan? Havoning sifati qanday? Jamoatchilik maydonlari qanday ko'rinishda?

Siz o'z jamoangizda yaratadigan shart-sharoitlar qanchalik yaxshi bo'lsa, ular shunchalik ko'p ta'sir ko'rsatadi.

*Men shaharda yashayman, ammo qayd etilgan muammolardan hech birining menga ta'sirini his qilmayman. Bular nimasi bilan men uchun muhim bo'lishi mumkin?*

Oxir-oqibat ushbu muammolarhar bir kishiga qaysidir ma'noda aloqador bo'ladi. Tengsizlik muvozanatning buzilishiga olib kelishi va atrofdagi xavfsizlik yo'qolishi mumkin, atrof muhitning ifloslanishi inson salomatligini zaiflashtiradi, mehnat unumdorligi pasayadi, demak, iqtisodiy ko'rsatkichlar ham tushadi, tabiiy ofatlar esa har birimizning kundalik turmush tarzimizni izdan chiqarishga qodir.

## 12 MAS'ULIYATLI ISTE'MOL VA ISHLAB CHIQRISH



### MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Oqilona iste'mol qilish va ishlab  
chiqarish modellariga o'tishni  
ta'minlash*

*Tuproq unumdorligini saqlash uchun  
Zomin tumanidagi fermer tomchilatib  
sug'orish uslubidan foydalanmoqda.* ▶

*Fotosurat: BMTTD O'zbekiston*




## NIMA UCHUN BU MUHIM?



### **Suv zaxiralari**

Chuchuk (ichimlik) suv dunyo suv zaxiralariining 3 foizdan kamini tashkil etadi, ularning 2,5 foizi Antarktika, Arktika muzliklariga va tog'li hududlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun insoniyat barcha antropogen ekotizimlar ehtiyojlarini hamda chuchuk suvga bo'lgan ehtiyojni qondirishda suv zaxiralariining 0,5 foiziga ishonishi va shundan kelib chiqishi lozim.

1 milliarddan ziyod kishi hanuz chuchuk suvga ega emas.



### **Energetika**

Global energiya iste'molining 29 foizi uy xo'jaliklari ulushiga to'g'ri keladi, havoga chiqarilayotgan CO2ning 21 foizi ularning faoliyati tufayli yuzaga keladi.



### **Oziq-ovqat**

Har yili 3 milliard tonna oziq-ovqat chiqindilari paydo bo'ladi, vaholanki 1 milliard kishi to'yib ovqat yemaslikdan va yana 1 milliard kishi ochlikdan aziyat chekadi.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

Yordam berishning ikkita asosiy yo'li mavjud:

- 1. chiqindi ishlab chiqarish hajmini qisqartirish;**
- 2. nima sotib olayotganingiz haqida mushohada qilib, imkon qadar ekologik barqaror mahsulotlarni tanlash.**



### **Ishlab chiqarish hajmini qisqartirish:**

- ovqatni tashlamaslik;
- plastikdan foydalanishni kamaytirish – bu Dunyo okeanini ifloslantiruvchilarning asosiylaridan biri;
- ko'p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish;
- plastik idishlarni qayta ishlash.

Keyingi ikki o'n yillik davomida dunyodagi o'rtahol kishilar soni oshib borishi kutilmoqda. Bunday holat ayrim odamlarning farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, biroq shusiz ham cheklangan tabiiy zaxiralarga talabning kuchayishiga olib keladi. Agar biz iste'mol qilish va ishlab chiqarish modellarini o'zgartirish choralariini ko'rmasak, atrof muhitga ortga qaytarib bo'lmaydigan ziyon yetkazamiz.

# 13 IQLIM O'ZGARISHIGA QARSHI KURASHISH



## MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha tezkor choralar ko'rish.*

*Orol dengizi o'rnidagi "kemalar qabristoni". Qoraqalpog'iston, Mo'ynoq tumani.* ►

*Fotosurat muallifi: Igor Ten*






## NIMA UCHUN BU MUHIM?



**Okean suvlari haroratining oshishi hamda qor va muzlar hajmining kamayishi dengiz sathining ko'tarilishiga olib keldi.** 1901 yildan 2010 yilgacha dunyo bo'yicha o'rtacha dengiz sathi ob-havoning umumiy isishi va muzliklarning erishi oqibatida okeanlardagi suvning ko'payishi tufayli 19 santimetrga yuqoriga ko'chdi. 1979 yildan boshlab har o'n yillikda Arktika dengizi muzliklari maydoni 1,07 million kvadrat kilometrga qisqaryapti.



**Agar imkoniyati yagona bo'lgan usulni qo'llash ta'minlanmasa,** atmosferada issiqxona gazlari to'planishining hozirgi darajasini hamda bunday gazlarning chiqarilishi davom etishini hisobga olganda, ehtimol, asrimiz oxiriga kelib sayyoramizdagi havo haroratining ko'tarilishi 1850-1900 yillarda qayd etilgan, Selsiy bo'yicha 1,5 gradusga teng belgidan oshib ketadi.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

### **Bosib chiqarmang.**

Internetda biror qiziq ma'lumot ko'rib, uni eslab qolmoqchimisiz? Yon daftaringizga yozib oling yoki, yaxshisi, raqamli belgi qo'ying, qog'ozni tejang.

### **Chiroqni o'chiring.**

Televizor yoki kompyuter ekrani yaxshi yoritiladi, shuning uchun, agar zarur bo'lmasa, boshqa yoritish vositalarini o'chirib qo'ying.

### **Avtomashinangizni vaqtida tekshirib turing.**

Yaxshi parvarish qilinadigan avtomobil havoga zaharli gazlarni kamroq chiqaradi.


Inson faoliyati tufayli iqlimning o'zgarishi bizning turmush tarzimizni hamda sayyoramiz kelajagini xavf ostiga qo'yadi. Iqlim o'zgarishi muammosini hal etib, biz har birimiz uchun barqaror dunyo qura olamiz. Biroq hozirdan harakat qilish lozim.

### **Agar hech qanday chora ko'rilmasa, nima sodir bo'ladi?**

Agar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashilmasa, so'nggi yillarda taraqqiyot sohasida erishilgan ko'pgina yutuqlardan mahrum bo'lish ehtimoli mavjud. Bundan tashqari, hozir kuzatayotganimizdek, iqlim o'zgarishi oziq-ovqat hamda suv tanqisligi kabi mavjud xavf-xatarlarni kuchaytirishi va bu holat mojaroga olib kelishi mumkin.

Harakatsizlik natijada bizga ko'proq ish o'rinlari yaratish, farovonlik darajasini oshirish, odamlarning hayotini yaxshilash, issiqxona gazlarining chiqarilishini qisqartirish va iqlim o'zgarishiga qarshilik ko'rsatishni ta'minlash imkonini beradigan tezkor chora ko'rishga nisbatan ancha qimmatga tushadi.

# 14 DENGIZ EKOTIZIMLARINI ASRASH



## MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Barqaror taraqqiyot yo'lida okeanlar,  
dengizlar va dengiz zaxiralarini asrash  
va ulardan oqilona foydalanish.*

*Yokulsarlon muzliklaridagi dengiz  
mushuklari. Janubiy-sharqiy Islandiya. ▶*

*Fotosurat muallifi: Eskinder Debebe*



## NIMA UCHUN BU MUHIM?



Okeanlarda **200 000 ga yaqin identifikatsiyalangan tur mavjud**, biroq haqiqiy raqam milliondan oshishi mumkin.



Okeanlar Yer yuzining to'rtidan uch qismini egallagan, Yer suv zaxiralarining **97 foizini**, hajmi bo'yicha sayyoramizning umumiy maydonining 99 foizini tashkil qiladi.

**Uch milliarddan ziyod kishining** hayot tarzi dengiz hamda qirg'oq bo'yi hududlarining biologik xilma-xilligiga bog'liq.

Global miqyosda dengiz va qirg'oq bo'yi zaxiralari hamda sanoat tarmoqlarining bozor narxi yiliga 3 trillion AQSh dollariga baholanmoqda yoki dunyo YaIMning deyarli 5 foiziga teng.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

Umumqamrovli, samarali va tenghuquqlilik asosida boshqariladigan, davlat himoyasi ostidagi hududiy tizimlar tashkil qilish zarur, ular biologik xilma-xillikni saqlab qolish hamda baliqchilik sanoatining barqaror kelajagini ta'minlashga yordam beradi.

Mahalliy darajada oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olganda yoki dengiz mahsulotlarini iste'mol qilganda okean manfaatlarini hisobga oladigan ta'minotchini tanlash, o'zimizga zarur bo'lgan mahsulotlarnigina iste'mol qilish lozim. Sertifikatlangan mahsulotlarni xarid qilish bu yo'nalishdagi ilk qadamlardan bo'ladi.

Okeanlar eng muhim tabiiy zaxiralar, shu jumladan, oziq-ovqat, dori-darmon, biologik yoqilg'i va boshqa mahsulotlarning manbaidir. Ular chiqindilarning parchalanishi hamda yo'qotilishiga ko'maklashadi, ularning tarkibiga kiruvchi qirg'oq bo'yi ekotizimlari esa po'rtana yetkazadigan ziyonni kamaytiradigan to'siq rolini o'ynaydi.

Okeanlarni sog'lom holatda saqlab turishiqim o'zgarishiga qarshi kurash choralarining va unga moslashish samaradorligini oshiradi. Siz qachondir dengizda bo'lganmisiz? Dengiz, shuningdek, sayohat va hordiq uchun ajoyib joydir.

Bundan tashqari, dengiz muhiti hisobsiz ajoyib mavjudotlarning – bir hujayrali organizmlardan tortib, Yer yuzida qachonlardir yashagan jonzoatlarning eng yirigi bo'lgan ko'k kitning ona-makonidir. Shu bilan birga, sayyoramizdagi eng xilma-xil ekotizimlardan biri bo'lgan marjon qoyalari dengiz muhitida joylashgan.

# 15 QURUQLIKDAGI EKOTIZIMLARNI ASRASH



## MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*O'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llashishga qarshi kurashish, yer tanazzuli holatlariga chek qo'yish va yer unumdorligini qayta tiklash hamda biologik xilma-xillikning yo'qolib ketish xavfini bartaraf etish.*

Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon daryolari bo'yidagi o'rmonlarda istiqomat qiluvchi Buxoro bug'usi (Xongul) ▶

Fotosurat: BMTTD O'zbekiston



## NIMA UCHUN BU MUHIM?



### O'rmonlar

1,6 milliardga yaqin kishi, jumladan ikki mingdan ziyod tub xalqlar, o'rmon hisobiga kun ko'radi.

Yer usti jonzotlari, o'simlik va hasharotlarining 80 foizi o'rmonlarda yashaydi.



### Cho'llashish

2,6 milliard kishi bevosita qishloq xo'jaligi bilan bog'liq, biroq bunda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning 52 foizi tanazzuldan qisman yoki kuchli jabrlangan.

Qurg'oqchilik va cho'llashish oqibatida har yili 20 million tonna don yetishtirish mumkin bo'lgan 12 million gektar yer (har bir daqiqada 23 gektar) yo'qotiladi.

### Biologik xilma-xillik

Hayvonlarning bizga ma'lum 8 300 turidan 8 foizi qirilib ketdi va 22 foizi yo'qolib ketish arafasida.

Daraxtlarning 80 mingdan ziyod xilidan istiqbolda foydalanish nuqtai nazaridan bor-yo'gi 1 foizi o'rganilgan.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

Yovvoyi tabiatga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda uning tabiiy mavjudligiga putur yetkazmaslik uchun ekoturizmning yovvoyi tabiatga hurmat va axloqiy munosabatlarga asoslangan imkoniyatlaridan foydalanish lozim.

Aql bilan boshqariladigan, qo'riqlanadigan hududlar ekotizimlarning sog'lomligini qo'llab-quvvatlashga ko'maklashadi, bu esa, o'z navbatida, insonlarning salomatligini saqlash uchun muhim.

O'z-o'zidan, bunday qo'riqlanadigan hududlarni rivojlantirish va ularni boshqarishda mahalliy hamjamiyatlarning ishtirokini ta'minlash o'ta muhimdir.

Sayyorimiz quruqligining taxminan 31 foizi o'rmonlar bilan qoplangan. O'rmonlar bizni muhim hayotiy zaxiralar – havodan tortib ichimlik suvi va oziq-ovqat mahsulotlarigacha – bilan ta'minlaydi.

Nochorlik chegarasi ortida yashayotgan Yer aholisining deyarli 75 foizi yerlar tanazzulining ta'sirini bevosita his qilmoqda. Biologik xilma-xillik va unga bog'liq ekotizim xizmatlari, shuningdek, iqlim o'zgarishiga moslashish hamda falokatlar xavfini kamaytirish bo'yicha strategiyalarning asosi bo'lishi mumkin, zero ular insonlarning iqlim o'zgarishi oldidagi zaifligini kamaytirishga qaratilgan ustunliklar yaratishga imkon beradi.

O'rmonlar va boshqa tabiiy zonalar hordiq va ruhiy xotirjamlik uchun ham muhim. Ko'pchilik madaniyatlarda tabiiy manzaralar ma'naviy qadriyatlar, din va an'anaviy ta'limot bilan chambarchas bog'liq.

# 16 TINCHLIK, ADOLAT VA SAMARALI BOSHQARUV



## MAQSADNING MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Barqaror rivojlanish manfaatlari yo'lida tinchliksevar va ochiq jamiyatlar qurilishiga ko'maklashish, barcha uchun odil sudlov imkoniyatidan foydalanishni ta'minlash va barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirokka asoslangan muassasalarni tashkil etish*

*"Xalq qabulxonalari" amalda. ▶  
O'zbekiston, Samarqand viloyati.*

*Fotosurat muallifi: Igor Ten*



## NIMA UCHUN BU MUHIM?



**2011 yilda** mojaroga jalb qilingan mamlakatlarda boshlang'ich maktabni tark etishga majbur bo'lgan bolalar ulushi **50 foizga yetdi, ya'ni 28,5 million bola**; bu holat barqaror bo'lmagan jamiyatlarning 2015 yildan keyingi davr uchun kun tartibining asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan ta'limga ta'sirini namoyish qiladi.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

**Mamlakatingiz hukumati amalga oshirayotgan ishlarga samimiy qiziqish bildiring.** Hamjamiyatingizning tinchliksevar va odil jamiyat qurilishining muhimligi bo'yicha bilimlarini oshiring; kundalik turmushingizda Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (BRM) qay tarzda erishishga intilishingiz mumkinligini belgilang.

**O'zgarishlar tarqatuvchisiga aylaning** – ijtimoiy integratsiyani hamda kelib chiqishi, etnik tegishligi, dini, jinsi va dunyoqarashi turlicha bo'lgan kishilarga hurmatni targ'ib qiling. Biz birgalikda barcha uchun munosib hayotni ta'minlash shartlarini yaxshilashga ko'maklashishimiz mumkin.

**Tinchliksevar, adolatli va ochiq jamiyatlarni qurish** barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlarga (BRM) erishish uchun zarur. Butun dunyodagi odamlar, etnik tegishligi yoki diniy e'tiqodidan qat'i nazar, o'z hayotlarini yashab, zo'ravonlikning barcha shakllari oldidagi qo'rquvdan xoli bo'lishlari va o'zlarini xavfsiz his qilishlari lozim.

BRMga erishish uchun sifatli ta'lim va sog'likni saqlash, adolatli iqtisodiyot va atrof muhitning umumqamrovli himoyasini ta'minlashga qodir, samarali hamda keng ishtirokka asoslangan davlat tuzilmalari zarur.

# 17 BARQAROR RIVOJLANISH YO'LIDA HAMKORLIK



## MAQSADNISNG MOHIYATI NIMADAN IBORAT?

*Barqaror rivojlanish manfaatlari yo'lida  
global hamkorlikni faollashtirish*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyevning** BMT Bosh kotibi **Antoniu Guterrish** bilan uchrashuvi. O'zbekiston, Samarqand, 2017 yil iyun. ▶

Fotosurat muallifi: Igor Ten





## NIMA UCHUN BU MUHIM?



**79%**

Rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilinayotgan tovarlarning 79% rivojlangan mamlakatlarga bojxona to'lovisiz olib kirilmoqda.



**30%**

Dunyo yoshlarining 30% «kompyuterlashgan avlod» vakillari bo'lib, kamida besh yildan beri Internetning faol foydalanuvchilaridir.



**4** MILLIARD

4 milliarddan ziyod kishi Internetdan foydalanmaydi, ularning 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi.

## MEN NIMA QILA OLAMAN?

Hukumatingizning BRMni amalga oshirish maqsadida ishbilarmon doiralar bilan hamkorlik qilish bo'yicha harakatlarini qo'llab-quvvatlang.

Agar siz biznes sohasida faoliyat yuritsangiz, hukumatingizning BRMni amalga oshirish maqsadida ishbilarmon doiralar bilan hamkorlik qilish bo'yicha harakatlarini qo'llab-quvvatlang.

2015 yilda jahon yetakchilari qashshoqlikka barham berish, tengsizlikni tugatish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga yo'naltirilgan, 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Kun tartibini tasdiqladilar.

Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlarga erishish uchun biz hammamiz – hukumatlar, fuqarolik jamiyati, tadqiqotchilar, ilmiy doiralar va xususiy sektor – birgalikda, hamjihatlikda harakat qilishimiz lozim.





**Barqaror rivojlanish maqsadlari - bu dunyoni o'zgartirishga  
yo'naltirilgan 17ta maqsaddir**  
[www.un.org/sustainabledevelopment/sustainable-development-goals/](http://www.un.org/sustainabledevelopment/sustainable-development-goals/)



**UN.Uzbekistan**



**UN\_Uzbekistan**



**UN Uzbekistan**

[www.un.uz](http://www.un.uz)